E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

AVTOMOBIL YO'LLARIDA ZAMONAVIY SUV QOCHIRISH TIZIMIDAN FOYDALANISH

Mahmudov Sanjarbek Toxirjon o'g'li
Namangan muhandislik-qurilish institute, stajyor o'qituvchi
msanjarbek1003@gmail.com
+99899 977-47-42

Annotatsiya: Mamalakatimiz avtomobil yo'llarida hozirda foydalanilayotgan suv qochirish tizimi, ularning hozirgi kudagi holati, samaradorligi, yog'ingarchilik fasllarda avtomobil yo'llaridagi suvlarni sig'dira olish qobilyati. Qolaversa ularni ta'mirlash jarayonlaridagi qiyinchilik va muammolar. Rivojlangan mamlakatlar shahar markazlaridagi avtomobil yo'llarida qo'llanilayotgan zamonaviy suv qochirish tizimlarining afzalliklari. Qolaversa suv qochirish tizimining iqtisodiy samaradorligi, ularni ishlash muddati, mamlakatimizda qo'llanishi to'g'risida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Suv qochirish tizimi, nov(latok), drenaj, rekonstrukrsiya, ekspluatatsiya, muhandislik kommunikatsiyasi, jadallik, tirbandlik, yog'ingarchilik, politilen chiqindilar.

Kirish

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari davlat mulki bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shaharlar hamda boshqa aholi punktlari o'rtasida yuklar va yo'lovchilar tashishni ta'minlaydi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llariga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xalqaro avtomobil yo'llari tarmog'iga kiradigan yo'llar xalqaro ahamiyatga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va tumanlarining ma'muriy markazlari viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, madaniyat hamda sanoat markazlari o'rtasida transport qatnovini ta'minlaydigan, mazkur markazlarni esa, xalqaro ahamiyatga molik yo'llar bilan, aeroportlar, temir yo'l stansiyalari, portlar va kema to'xtash joylari, shuningdek qo'shni davlatlar bilan bog'laydigan yo'llar davlat ahamiyatiga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Tumanlarning ma'muriy markazlarini shaharchalar, qishloqlar va ovullar bilan, shuningdek davlat ahamiyatiga molik yo'llar bilan bog'laydigan yo'llar mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi.

Asosiy qism

Hozirgi kunda mamlakatimizda 309495 km avtomobil yo'li mavjud bo'lib, shulardan umum foydalamishdagi avtomobil yo'llari 42869 km ni tashkil qiladi. Bundan bilish mumkinki ushbu yo'llarning barchasini ikki chetida suv qochirish tizimi mavjud.

Asosan ushbu yo'llar shahar markazlaridan o'tgan. Yurtimizda ob-havo keskin o'zgaruvchan hisoblanadi, ya'ni yog'ingarchilik bahor va kuz oylarida ko'p bo'lishi tabiiy xol hisoblanadi. Yog'ingarchilikni ko'p bo'lishi avtomobil yo'llaridagi suvlarni tezroq chetlatishni talab qiladi. Chunki suvning avtomobil yo'li yuzasida ko'p qolishi asos qismida yumshash va buning natijasida buzilish holatini keltirib chiqaradi. Shuning uchun suvlarni chetlatish eng samarali hisoblanadi. Yurtimizda avtomobil yo'llaridagi suvlarni nov(latok)lar yordamida chiqarib yuboriladi. Lekin hozirgi kunda yog'ingarchilikni ko'pligi, suv qochirish tizimida har xil begona jismlarni ko'payib borishi ya'ni chiqindilar bilan to'lib, suv yo'lini to'sib qolishi natijasida avtomobil yo'li yuzasiga toshib chiqishi ko'p kuzatib borilmoqda. Qoplamaning

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

yuzasida buzilishlar, ya’ni g’adir-budurlikni ortib ketishi, qoplamaning cho’kish xolatlari, yorilishlar, sinishlar sodir bo’lishida katta sababchi bo’lib hizmat qiladi.

Rivojlangan mamalakatlar avtomobil yo’llari qurilishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ularda ham nov(latok)lardan foydalinadi. Qolaversa eng yaxshi va samarali yechimlardan biri drenaj holatidagi suv qochirish tizimi ham mavjud. Yo’lning asos qismida tonnelsimon suv qochirish tizimi mavjud, ularda insonlarning harakat qilishi qulay, muhandislik kommunikatsiya vositalari(aloqa kabellar, elektr toklar, gaz quvurlari) joylashtirilishi qulay. Eng asosiysi ta’mirlash va joylashtirish jarayonida qoplamaga zarar yetkazilmaydi.

Bizning hududlarimizda muhandislik kommunikatsiyalarini, suv qochirish tizimini yangilash va ta’mirlashda juda ko’plab muammolar vujudga keladi.



1-rasm: Mamlakatimizda nov(latoklarni) joylashtirish

Ya’ni ularni joylashtiriladigan alohida-alohida joy ochilgandan so’ng qoplama yotqiziladi. Yillar o’tib ta’mirlash jarayonlari olib boriladigan davrda, qoplamani buzish holatiga olib kelinadi. O’sha paytda u eski mustahkam holatiga qaytmaydi.

Xulosa

Hozirgi kuda avtomobil yo’llarini qurilishida rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo’llashimiz lozim. Bu bilan biz:

-suv qochirish tizimini mukammal bo’lishini ta’minlaymiz;

-yog’ingarchilik davrida suvlarni yo’lga jiddiy ta’sirini kamaytirishga erishish;

-ularni ta’mirlashdagi qulayliklar;

-kommunikatsiya vositalari va suv qochirish tizimini ta’mirlash jarayonida yo’llardagi harakatga ta’sirini kamaytirsh.;

-uzoq muddatli suv qochirish tizimiga ega bo’lish;


-ishlash muddatini uzayishi natijasida iqtisodiy tomonlama xarajatlarni kamaytirish;

-ekologik jihatdan yutuq tomonlari

-suv miqdorini ko’pligi sababli yo’llardagi sellarni kamaytirish



2-rasm: Zamonaviy suv qochirish tizimi.



3-rasm: Shahar ko'cha va yo'llari asosiga joylashtirilgan suv qochirish inshootlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hidoyatillayevich X. A. et al. Yo'l to'shamalarida paydo bo'ladigan deformatsiyalarni o'rganish va uni yechimlari //Механика и технология. – 2022. – Т. 4. – №. 9. – С. 198-204.
2. Хабибуллаев А. Х., Мухаммаджанов А. О., Мамасолиев С. Н. У. Свойства гетерокомпозитных полимерных покрытий для применения в хлопкоочистительных технологических оборудованиях получаемых активационно-гелиотехнологическим методом //Механика и технология. – 2022. – №. Спецвыпуск 1. – С. 188-192.
3. Xidoyatillayevich K. A., Odiljon o'g'li Y. M., Otabek o'g'li A. S. ENSURING CONSTRUCTION QUALITY IN THE CONSTRUCTION OF ASPHALT CONCRETE PAVEMENTS //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 4. – №. 1. – С. 119-112.
4. Ismatullaevich M. D. et al. Avtomobil yo'llari uchun mahalliy va ikkilamchi xom-ashyolar asosida mastika olishning ilmiy asoslari //Механика и технология. – 2022. – Т. 4. – №. 9. – С. 204-210.
5. Hidoyatillayevich X. A. et al. Yo'l to'shamalarida paydo bo'ladigan deformatsiyalarni o'rganish va uni yechimlari //Механика и технология. – 2022. – Т. 4. – №. 9. – С. 198-204.
6. Qo'Ysinaliyev N. Z. O. G., Muxiddinov S. Z. O. G. AVTOMOBIL YO'LLARIDA SEMENTBETON QOPLAMALARINING AFZALLIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 356-362.
7. O'G, Qo'Ysinaliyev Nuriddin Zafarali, Madaminova Dilnoza Dilshodbek Qizi, and O. Xakimov. "YO 'L TO 'SHAMALARIDA PAYDO BO 'LADIGAN DEFORMATSIYALARNI O 'RGANISH VA UNI YECHIMLARI." *Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики* 1.1 (2022): 158-164.
8. QO'YSINALIYEV N. et al. METHODS OF INCREASING THE STRENGTH OF ASPHALT CONCRETE MIXED //МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Моя профессиональная карьера. – 2022. – Т. 1. – №. 35. – С. 72-78.
9. Махкамов Д. И. и др. РАЗРАБОТКА СДВИГОУСТОЙЧИВЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ АСФАЛЬТОБЕТОННЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ПОКРЫТИЙ ДОРОГ ПУТЕМ МЕХАНОХИМИЧЕСКОЙ МОДИФИКАЦИИ ОРГАНОМИНЕРАЛЬНЫХ КОМПОНЕНТОВ //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-2 (86). – С. 75-82.
10. . Mahmudov S. T. REDUCTION OF CROPS ARE INCREASED BY INCREASING THE CONSTRUCTION OF ROADS //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 68-73.
11. Иноятов К. М. и др. ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КОМПОЗИЦИОННЫХ МАТЕРИАЛОВ, НАПОЛНЕННЫХ МЕХАНОАКТИВИРОВАННЫМИ ОРГАМИНЕРАЛЬНЫМИ ИНГРЕДИЕНТАМИ

//Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1 (72). – С. 681-687.
12. Махкамов Д. И. и др. ССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ МЕХАНОАКТИВИРОВАННЫХ ПРИРОДНЫХ МИНЕРАЛЬНЫХ ИНГРЕДИЕНТОВ НА СВОЙСТВА КОМПОЗИЦИЙ ДЛЯ АСФАЛЬТОБЕТОННЫХ ПОКРЫТИЙ //Экономика и социум. – 2021. – №. 11-2 (90). – С. 147-153.
13. Nurxonov D. X., Vafaqulov V. B. FEATURES OF PROTECTION OF MOUNTAIN ROADS FROM AVALANCHES AND AVALANCHES //Экономика и социум. – 2022. – №. 6-1 (97). – С. 212-216.
14. Tokhirjon o'g'li M. S. FORMATION AND REPAIR OF ROADS FORMATION OF ELECTRONIC BASE //YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 120-125.
15. Mutalibov Q. I. TECHNOLOGIES OF CONSTRUCTION OF AUTOMOBILE ROADS FROM PLASTIC WASTE //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.
16. Мамажонов М. и др. ПОВЫШЕНИЕ СЕЙСМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 31 (том 1)(декабрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.12. 2021. – 2021. – С. 14.
17. Mamajonov M. et al. INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DESIGN OF HIGHWAYS //Экономика и социум. – 2022. – №. 1-1 (92). – С. 119-124.
18. Mutalibov I., Qo'Ysinaliyev N. Use of mineral powder in the construction of asphalt concrete roads //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1 (81). – С. 245-248.
19. Мамажонов М. и др. ИННОВАЦИОННЫЙ СПОСОБ СТРОИТЕЛЬСТВА ДОРОГ //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 31 (том 1)(декабрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.12. 2021. – 2021. – С. 28.
20. Mamajonov M., Kholmirzaev M. GEODESIC WORK IN THE PROCESS OF DESIGN TO ENSURE TRAFFIC SAFETY ON ROADS //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-1 (82). – С. 157-160.

WORDLY
KNOWLEDGE